



## MAKTAB MUXITIDAGI BULLINGNING GENDER XUSUSIYATLARI

*Oribboyeva D.D.*

*Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti*

**Annotatsiya.** Maqolada so'nggi yillarda bulling muammosi nafaqat umumiy o'rta ta'lif mifiklarini rahbariyatini, balki ota-onalarni, o'qituvchilarini, siyosatchilarini, jamoatchilik vakillarini ham ko'proq tashvishga solayotgan muammolardan biri ekanligiga e'tibor qaratilgan. Dunyo maktablarida ruy berayotgan turli bezoriliklar va o'quvchilarning bunday zo'ravonliklarning qurboni sifatida psixikasida ro'y berayotgan muammolarga urg'u bergilan bo'lib, bulling xodisasining bevoista ishtirokchilari sifatida ko'proq qaysi jins vakillari ishtirok etishi masalasi yoritilgan. Muallif o'smirlilik davrida bullingning gender xususiyatlari to'g'risidagi fikrlarini yoritishda xorij va rus psixologiyasi vakillarining bu boradagi nazavriy va ilmiy izlanishlarini o'zaro qiyoslab solishtirib berishga harakat qilgan.

**Kalit so'zlar:** bulling, jinsiy farqlar, o'smirlar, profilaktika, zo'ravonlik, nizolar, verbal, agressiya

## ГЕНДЕРНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ БУЛЛИНГА В ШКОЛЬНОЙ СРЕДЕ

**Annotatsiya.** В статье обращается внимание на то, что проблема буллинга в последние годы беспокоит не только руководство общеобразовательных школ, но и родителей, учителей, политиков и представителей общественности. В мировых школах происходит множество различных актов агрессии, и акцент сделан на проблемах психики учащихся, которые становятся жертвами такого насилия. Также рассматривается вопрос о том, представители какого пола чаще всего участвуют в буллинге как непосредственные участники. Автор стремится сопоставить мнения зарубежных и русских психологов о гендерных особенностях буллинга в подростковом возрасте, опираясь на теоретические и научные исследования в этой области.

**Ключевые слова:** буллинг, половые различия, подростки, профилактика, насилие, конфликты, вербальная агрессия.

## GENDER CHARACTERISTICS OF BULLYING IN SCHOOL ENVIRONMENT

**Annotation.** The article highlights that the issue of bullying has become a concern not only for the administration of public schools but also for parents, teachers, politicians, and members of the community in recent years. Numerous acts of aggression occur in schools worldwide, with a focus on the psychological problems faced by students who become victims of such violence. The article also examines which gender is more frequently involved in bullying as direct participants. The author aims to compare the opinions of foreign and Russian psychologists regarding the gender characteristics of bullying during adolescence, relying on theoretical and scientific research in this field.



**Keywords:** *bullying, gender differences, adolescents, prevention, violence, conflicts, verbal aggression.*

## KIRISH

So'nggi yillarda bulling muammosi nafaqat umumiy o'rta ta'lismaktablari rahbariyatini, balki ota-onalarni, o'qituvchilarni, siyosatchilarni, jamoatchilik vakillarini ham ko'proq tashvishga solmoqda. Butun dunyoda mакtabda ro'y berayotgan turli bezorilik va o'quvchilarning zo'ravonlikdan keyin qurban bo'lishi tushunchasini o'rganuvchi tadqiqotlar, nashrlar paydo bo'lishiga qaramay, muammo haligacha butunlay o'z yechimini topib ulgurmadi [Berdyshev, 2005; Bochaver, Xlomov, 2013; Butenko, 2015 yil; Volkova, 2016 yil; Glazman, 2009; Kohn, 2006; Krivtsova, Shchapkina, Belevich, 2016 yil; Nesterova, 2015 yil; Petrosyants, 2011 yil; Sobkin, 2014; Kohut, 2007; Li, 2011 yil; Losey, 2011 yil; Olweus, 1993; Sourander va boshqalar, 2007; Wolke, 2012 va boshqalar].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAXLILI

O'smirlar orasida uchrab turadigan bulling muammosi ko'p yillar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Olib borilayotgan turli tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, mакtab o'quvchilarining uchdan bir qismi mакtabda doimiy yoki vaqtiga vaqtiga bilan zo'ravonlikning turli shakllariga duch keladilar. Amaliyat shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlikning bu shakllari asosan verbal xarakterga ega bo'lib, baqirish, kamsituvchi so'zlar, haqoratlash, bezorilik, inson sha'ni va qadr-qimmatini ranjitudigan "qo'pol" hazillardan iborat. Bugungi kunda o'quvchilarning chorak qismi jismoniy zo'ravonlik va jismoniy zo'ravonlik [12] tahdidlariga duch kelmoqda.

Mакtabda o'quvchilar orasida ro'y beradigan bulling muammolari bilan shug'ullanuvchi psixologlar (L. S. Alekseyeva, A. A. Bochaver, I. S. Berdishev, O. L. Glazman, S. V. Krivsova, D. A. Kutuzova, V. R. Petrosyans va boshqalar) ning ilmiy tadqiqotlarida aniqlanishicha bu muammo azaliy mavzulardan biri bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda.

"Bulling" atamasi ilmiy adabiyotlarda faqat o'tgan asrning 90-yillari boshlarida paydo bo'lgan, u dastlab, "mobbing" atamasi sifatida qollanilib bir guruh

odamlar tomonidan bir kishini muntazam ravishda ta'qib qilish uchun ishlatiladigan tushuncha sifatida ta'riflangan [7], hamda birinchi marta shved shifokori Peter-Paul Xaynemann tomonidan ishlatilgan. Rus tadqiqotchisi D. Olveus tomonidan "Maktablardagi bulling" deb nomlangan kitob nashr etilgandan so'ng, chet ellik psixologlar orasida ham "bulling" fenomeniga katta qiziqish paydo bo'ldi. [16].

Ushbu mavzu tezda jahon psixologiyasining o'rganish ob'ektiga aylandi hamda bullingning oldini olish va to'xtatish sohasidagi pedagogik va psixologik tadqiqotlar tez rivojana boshladi. Britaniyalik tadqiqotchi D. Leynning izlanishlarida bulling hodisasi yetarlicha bat afsil yoritilgan bo'lib, muallif ushbu xodisaning sabablarini va keltirib chiqargan omillarni o'z asarlaridan birida ta'kidlagan. [10].

1990-yillarga qadar bunday tadqiqotlar asosan G'arb olimlari (Geynemann, D. Olveus, Leymann, Pikas, Roland, Orton, Tattum, Leyn, Sparksetal) tomonidan olib borilgan va ular jamoatchilik e'tiborini maktab bezoriligi muammosiga qaratishga harakat qilganlar. Keyinchalik, bullingning namoyon bo'lishi, qurbonlar va bullerlarning psixologik xususiyatlari va turli mamlakatlarda ushbu muammoni hal qilishning umume'tirof etilgan yondashuvlari tasvirlangan eksperimental ma'lumotlar taqdim etila boshlandi.

Rossiya psixologlari amaliyotida bulling muammosi uzoq vaqt davomida "izolyatsiya qilingan" ijtimoiy kamchilikning ko'rsatkichi sifatida talqin qilingan (to'liq bo'lмаган оила, "е'tibordan chetda qolgan maktab", vaqtinchalik qiyinchiliklar) bo'lsa hozirgi vaqtida shafqatsizlik va zo'ravonlik moddiy, sinfiy, irqiy, madaniy, diniy, ijtimoiy-iqtisodiy va hokazolardan qat'i nazar, aholining barcha qatlamlari va toifalarida sodir bo'lishi isbotlandi.

Olimlar tomonidan bolaning hayoti va rivojlanishidagi "sensor", ya'ni zo'ravonlikka nisbatan eng sezgir davrlar aniqlandi. Bu davrlar anatomik-fiziologik, gormonal, emotsiyal-shaxsiy va psixojitmoiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, bular bolani eng zaif holatga keltiradi. Bu davrlardan biri, o'smirlik davri hisoblanadi. [1, b. 13-14].

Xorijiy tadqiqotchilar A.A. Bochaver va K.D. Xlomovning ilmiy xulosalariga ko'ra, asosan boshlang'ich maktab o'quvchilari to'g'ridan-to'g'ri ta'qibga duch keladi, o'rta va yuqori sinflarda esa bilvosita ta'qib ko'proq kuzatiladi.



Shuningdek, o'g'il bolalar qizlarga qaraganda ta'qibda turli rollarda (qurban, ta'qibchi, guvoh) sifatida ishtirok etishga ko'proq moyil ekanligi aniqlangan. Odatda o'g'il bolalarning o'zlari ham ko'proq jismoniy ta'qib qurbanini bo'lishadi – ko'pincha kuchlilar tomonidan ularning pullari olib qo'yiladi, buyumlariga shikast yetkaziladi, o'zlariga tahdid qilinadi o'zlari hohlamaqan ishlarni bajarishga majbur qilinadi. Qizlar esa ko'pincha ta'qibchilar tomonidan tarqatilgan gap-so'zlar, nomunosib gaplar va imo-ishoralar qurbanini bo'lishadi. [3]

Olveus tomonidan olingan bulling qurbanlariga oid statistika ma'lumotlarini tahlil qilgan S.V. Krivsova bulling qurbanlarida aniq jinsiy farqlar yo'qligi haqida xulosa keladi – uning fikricha o'g'il bolalar va qizlar taxminan bir xil darajada ta'qibga duch keladilar [7]. V.S. Sobkin va M.M. Smyslova tomonidan o'tkazilgan tadqiqot materiallarida esa o'g'il bolalar qizlarga qaraganda ruhiy yoki jismoniy zo'ravonlikka duch kelmaganliklarini kamroq qayd etilganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'g'il bolalar qizlarga qaraganda ruhiy yoki jismoniy zo'ravonlik holatlarini ko'proq boshdan o'tkazadilar [13, b. 76].

Bullingda ishtirok etuvchilarning shaxsiy-psixologik xususiyatlari ta'qib vaziyatdagi rol yoki pozitsiyasiga qarab farq qilishi mumkin. Ko'plab mualliflar bolaning mazkur rollardan birini faolroq o'zlashtirishiga yordam beradigan ichki omillar mavjudligi haqida gapiradilar. Masalan, bulling qurbanlarida "o'z-o'ziga bo'lgan hurmatning pasayishi, o'z-o'ziga rahm-shafqatning pasayishi, o'z-o'zini qabul qilishning pasayishi va o'z-o'zini ayblashning oshishi; maktab, tengdoshlar, otanonlari, keljak sohasidagi muammoli hissiyotlarning mavjudligi ko'zga tashlanadi; ularda o'z-o'zini va boshqalarni qabul qilmaslik, emotsional noqulaylik, o'zini chetga olish va tashqi nazoratni kutish; nisbatan yuqori darajadagi dushmanlik; yuqori darajadagi emotsionallik va shaxsiy asabiy-ruhiy barqarorlikning pasayishi; yuqori stressga moyillik" bilan tavsiflanadi [11].

Odatda, bulling qurbanlari sezgir, xavotirli, yig'loqi, jismonan zaif bo'ladilar, ularda o'z-o'ziga bo'lgan baho past bo'ladi va ta'qib yoki zo'ravonlikdan keyin ular o'zlarini noqulay his qilishadi, o'zlariga nisabatan ishonchsizlik bilan munosabatda bo'lishadi va ko'pincha azob chekishadi. Bulling hodisasisiga beixtiyor guvoh bo'lganlar



yoki "kuzatuvchilar" o'zlarining ojizligini his qilishadi, ularning o'z-o'ziga bo'lgan bahosi ham, qurbanlarniki kabi, sezilarli darajada pasayadi [10].

Bulling - bu, aslida, agressiya turi bo'lib, unda bir shaxs (yoki guruh) boshqa bir shaxsga hujum qilib, uni munosib rad qilish imkoniyatidan mahrum qiladi. Bulling jarayonida qurban haqoratlanadi, kamsitiladi va uni tengdoshlar guruhining barcha mavjud turlaridan "siqib chiqarish"ga harakat qilinadi.

Bullingni o'rGANISH bo'yicha birinchi yondashuv vakillari, masalan, R.K. Smith va uning hamkasblari, bullingning genderga bog'liq namoyon bo'lish farqlariga e'tibor qaratishadi. Ular o'g'il bolalar va qizlar nafaqat o'zlarining agressiv harakatlari xususiyatiga, balki ular qo'llaydigan bulling shakllariga ham farq qiladi, deb ko'rsatishadi.

Jismoniy va to'g'ridan-to'g'ri bulling shakllari, masalan, jazolash va urushlar, ko'proq o'g'il bolalar o'rtasida uchraydi. Bu harakatlar ko'proq va to'g'ridan-to'g'ri qurbonga zarar yetkazishga qaratilganligi bilan ajralib tursa, qizlar orasida og'zaki agressiya shakllariga, shu jumladan, tahqirlash va tuhmatga murojaat qilishga moyillik yuqori ekanligi ko'zga tashlanadi. Bunday yondashuv ularga o'z "qurbanlar"iga psixologik og'riq yetkazish imkonini beradi, shu bilan birga ochiq qarshilik va qoralanishdan o'zlarini olib qochishadi.

Qizlar orasidagi bilvosita bulling shakllari, g'iybatlar va ijtimoiy izolyatsiya, agressiv harakatlarda ishtirok etishlarini yashirish uchun ko'proq qo'llaniladi. Bu ularga atrofdagilarning salbiy bayonotidan qochish va o'z ijtimoiy reputatsiyasini saqlashga imkon beradi. Bullingning bu jihat shundan dalolat beradiki, o'g'il bolalarning xulq-atvoridan farqli o'laroq, qizlar ko'proq manipulyativ va yashirin usullardan foydalanishlari mumkin, bu ularning harakatlarini kamroq ko'rinsada lekin ancha vayronkorligi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, gender farqlarni tushunish o'qituvchilar va bulling muammolari bo'yicha mutaxassislar uchun muhimdir, chunki bu ularga ta'lif muhitida bulling holatlarini yaxshiroq talqin qilish va javob berishga yordam beradi. Qizlar agressiyaning ko'proq buzilgan shakllaridan foydalanishlari mumkinligini bilish o'qituvchilarga qizlar o'rtasida bulling holatlarini samaraliroq aniqlash va



oldini olish, shuningdek, mojaro taraflari uchun tegishli aralashuv va qo'llab-quvvatlash strategiyalarini taklif qilishga yordam beradi.

Qizlar odatda o‘z ijtimoiy aloqalarida nozik va bilvosita agressiya shakllarini qo’llaydilar. Bunday usullar, masalan, tuhmat qilish, mish-mish tarqatish va ijtimoiy chiqarib yuborish, qurbonga psixologik zarar yetkazishni maqsad qilgan bo‘lib, kuzatuvchilar uchun kamroq ko‘rinadi. Bu bulling shakli qizlarning achchiqlanishlari va bir-birlari bilan o‘zaro munosabat qilishlari uchun imkon beradi.

O‘g‘il bolalar o‘z agressiyalarini jismoniy harakatlar orqali ifoda qilishga moyildirlar, masalan, janjallar, to‘polonlar yoki boshqa jismoniy zo‘ravonlik harakatlari yordamida amalga oshiriladigan bu usullar ko‘proq ma’lum bo‘lib, ular qurbon uchun ham, agressorning o‘zi uchun ham jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Bullingning namoyon bo‘lishidagi bunday farqlar jamiyat va madaniy me’yorlar bilan bog‘liq bo‘lib, erkaklar va ayollarning xulq-atvorida o‘zgacha tarzda namoyon bo‘ladi. Qizlar ko‘proq ijtimoiy o‘zaro aloqa ko‘nikmalariga ega bo‘lib, o‘z ijtimoiy guruhlarida qolib, manipulyatsiyalar va bilvosita harakatlardan foydalanib, qurbonning maqomi va reputatsiyasini zaiflashtirishlari mumkin. Bu usullar juda og‘riqli bo‘lishi va uzoq muddatli psixologik oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Pedagoglar va mutaxassislar uchun bulling holatlariga samaraliroq javob berish uchun ushbu farqlarni tushunish muhimdir. Genderga xos bulling xususiyatlari haqidagi bilimlar o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni hisobga olgan holda aralashuv dasturlarini ishlab chiqishga yordam berishi va barcha ishtirokchilar uchun tegishli qo’llab-quvvatlash strategiyalarini taklif qilishga yordam berishi mumkin.

Kreyg va Pepler (1997) agressiya qurbonlar uchun jismoniy bulling shakllari kabi vayronkor bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bu haqiqatni tan olish bolalar va o‘smlar bilan ishlaydigan pedagoglar va mutaxassislar uchun muhimdir, chunki u bulling holatiga, qatnashchilar jinsidan qat’i nazar, e’tiborliroq va kompleks yondashuvga undaydi. Tajovuzkor xulq-atvorning turli shakllarini anglashni o‘z



ichiga olgan ta'lif va aralashuv yondashuvlari bulling muammolarini ta'lif muhitida samaraliroq hal qilishga yordam beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

D. Olveusning tadqiqotlari asosida (17), aynan 10-14 yoshda jinslar o'rtasidagi farqlar kuchli yaqqol bo'lib, qizlar o'z psixik va jismoniy rivojlanishida o'g'il bolalardan yuqori bo'lganligi aniqlangan. Shunday qilib, biz ham o'smirlik davridagi yigit va qizlarda bullingga xos xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb hisobladik hamda 13-14 yoshdagi 32 nafar o'smir bilan eksperiment o'tkazdik. Ekperiment davomida quyidagi metodlar qo'llanildi: Bass-Darki so'rovnomasi, Konflikttagi hulq-atvor uslubi test-so'rovnomasi (K. Tomas).

**Tadqiqot natijalari va ularning interpretatsiyasi:** o'tkazilgan testlar natijalariga ko'ra qizlar psixik va jismoniy rivojlanishi borasida o'g'il bolalardan anchagina ustunliklari aniqlandi. Bu ularning barcha faoliyatlarida jumladan maktabdagi o'qish va shaxslararo munosabatlarida ham yaqqol ko'rinish turibdi. O'smirlardagi tajovvuzkorlik darajasini o'rganishga qaratilgan Bass Darkining so'rovnomasi natijalarga ko'ra, o'g'il bolalarda agressivlik darjasini yuqori, qizlarga qaraganda yuqori ekanligi hamda ularda ko'proq fiziologik agressiya qizlarda esa verbal agressiyaning ustunligi kuzatiladi. Bu jinslar o'rtasidagi to'qnashuvlarning sabablarini tushunishga yordam beradi. Tomas testi-so'rovnomasi natijalari shuni ko'rsatadi, qizlar odatda konfliktdan qochishga intilishadi, o'g'il bolalar esa ko'proq to'qnashuvchi va himoyalovchi hulq-atvorni tanlashadi. Ayzenk metodikasi natijalariga ko'ra, qizlar odatda o'g'il bolalarga nisbatan o'z psixik holatlarini yaxshiroq baholashadi va o'zlarini nizolar vaqtida tinchroq his qilishadi. Har uchchala surovnomalar natijalariga ko'ra maktabdagi bulling xodisasida qizlar vaziyatga nisbatan bosqlik va xotirjamlik bilan munosabatda bo'ladigan bo'lsalar o'g'il bolalar esa ko'proq agressiv reaksiyalarni namoyon qilishlari mumkin.

### TAHLIL VA NATIJALAR:

1-jadval

Nizoli vaziyatlarga nisbatan munosabatlarning jinsga xos farqi

Javoblar		Nizoli vaziyatdagi xulq atvor					Jami
		Raqobat	Moslashish	Nizoli vaziyatdan qochish	Kelishuvchanlik	Hamkorlik	
Jins	Qizlar	2	3	2	5	2	14
	O'g'il bolalar	9	1	4	2	2	18
Jami		11	4	6	7	4	32

2-jadval

Tajavvuzga nisbatan munosabatlarning jinsga xos farqi

Javoblar		Tajavvuz turlari				Jami
		Jismoniy tajavvuz	Bevosita	Verbal tajavvuz	Tajavvuz aniqlanmadni	
Jins	Qizlar	5	0	0	9	14
	O'g'il bolalar	1	5	6	6	18
Jami			5	6	15	32

Kuzatuvlarga ko'ra, qizlar o'smirlik davrida manipulyatsiya qilish va zo'ravonlik holatlarini yashirishga ko'proq moyil bo'lishadi, lekin ular shaxsan bu holatlarda har doim ham ishtirok etmaydilar. Shuning uchun, qizlar orasida o'smirlik davrida ko'proq "yashirin" bullerlar bo'lishlari mumkin. O'g'il bolalar o'smirlik davrida jismoniy aggressiyani ko'rsatishga moyilliklari bilan ajralib turishadi, bu davrga kelib menning o'ta rivojlanishi tufayli ham ularda bunday holat ro'y beradi.



Qizlar o'g'il bolalarga nisabatan konfliktli vaziyatlarda murosa qilishga intilishadi. O'g'il bolalar esa o'zlarini nimalarga qodir ekanliklarini kuchlari orqali ko'rsatishga moyil bo'lib, maktabdagi bulling jarayonida tajavvuzkorliklarini "bulling qurban"ini shaxsan ta'qib qilishadi, Xorijiy mualliflarning tajribalari va eksperiment natijalariga tayangan holda psixologning maktabdagi zo'ravonlik holatlarini oldini olish va profilaktika qilish jarayonida o'smirlarning gender xususiyatlarini ham hisobga olishi zararuligi aniqlandi.

### XULOSA

Xorijiy va mahalliy tadqiqotlarning maktab bullingi fenomeni bo'yicha nazariy ma'lumotlarini taxlil etish natijasida, muammoni va uning sabablarini tushunish uchun turli omillarni, avvalo, ishtirokchilarning gender xususiyatlarini, ularning zo'ravonlikning turi va shakllarini tavsiflovchi omillarni hisobga olish kerakligi aniqlandi. Qizlar va o'g'il bolalarning empativlik darajalari o'zaro farq qilmasada agressivlik darajasi o'g'il bolalarda qizlarga nisbatan ancha yuqori. Qizlarda esa verbal tajavvuz yuqori.

Shunday qilib, o'g'il bolalar va qizlar o'smirlik davrida bullingni yuzaga kelishiga birdek moyil bo'lib faqatgina bulling qanday namoyon bo'lishida (bilvosita yoki to'g'ridan-to'g'ri) va qanday turdagи agressiya qo'llanilishiga asosan (jismoniy yoki psixologik) ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алексеева Л.С. Жестокое обращение с детьми: его последствия и предотвращение. М.: Национальный книжный центр «Сентябрь», 2016. 180 с.
2. Бердышев И.С. Лекарство против ненависти // Первое сентября. 2005. № 18. С.3.
3. Бочавер А.А., Хломов К.Д. Буллинг как объект исследований и культурный феномен // Психология. Журнал Высшей школы экономики. 2013. Т.10. № 3. С.149—159.
4. Глазман О.Л. Психологические особенности участников буллинга // Известия Российского государственного педагогического университета имени А.И.Герцена. 2009. № 105. С.159—165.
5. Гребенкин Е.В. Профилактика агрессии и насилия в школе. Ростов-на-Дону: Феникс, 2013. 157 с.
6. Кривцова С.В. Буллинг в школе VS сплоченность неравнодушных. Организационная культура ОУ для решения проблем дисциплины и противостояния насилию. М.: Норма, 2011. 95 с.
7. Кривцова С.В., Шапкина А.Н., Белевич А.А. Буллинг в школах мира: Австрия, Германия, Россия. Образовательная политика. 2016. № 3 (73). С.97— 119.



8. Кутузова Д.А. Травля в школе: что это такое и что можно с этим делать // Психология и школа.2006.№ 4.С.54—72.
9. Кутузова Д.А. Травля в школе.Мифы и реальность [Электронный ресурс].2011.URL: <http://medportal.ru/budzdorova/child/625/> (дата обращения: 20.03.2019).
10. Лэйн Д. Школьная травля (буллинг).Детская и подростковая психотерапия / Под ред.Дэвида Лейна и Эндрю Миллера.СПб.: Питер, 2001.С.240—274.
11. Петросянц В.А. Психологическая характеристика старшеклассников, участников буллинга в образовательной среде [Электронный ресурс] // Эмиссия.Электронный научный журнал.2010.URL: <http://www.emissia.org/offline/2010/1479.htm> (дата обращения: 20.03.2019).
12. Собкин В.С., Маркина О.С. Влияние опыта переживаний «школьной травли» на понимание подростками фильма «Чучело» // Вестник практической психологии образования.2009.№ 1.С.48—57.
13. Собкин В.С., Смыслова М.М. Буллинг в стенах школы: влияние социокультурного контекста (по материалам кросскультурного исследования) // Социальная психология и общество.2014.Т.5.№ 2.С.71—86.
14. Тарасова С.Ю., Осницкий А.К., Ениколопов С.Н. Социально-психологические аспекты буллинга: взаимосвязь агрессивности и школьной тревожности [Электронный ресурс] // Психологическая наука и образование psyedu.ru.2016.T.8.№ 4.С.102—116.[doi:10.17759/psyedu.2016080411](https://doi.org/10.17759/psyedu.2016080411)
15. Arora C.M. J. Measuring bullying with the «Life in School» checklist // Pastoral Care in Education.1994.№ 12.P.11—15.
16. Olweus D. Aggression in the schools.Bullies and whipping boys.Washington: Hemisphere Publishing Corporation, 1978.
17. Olweus D. Aggressors and their victims: bullying at school.Disruptive behaviours in schools / In H.Gault (ed.).New York: Wiley, 1984.P.57—76.
18. Olweus D., Catalano R., Jungertas J., Slee P., Smith P.K. The nature of school bullying: a crossnational perspective.London, UK: Routledge, 1999.P.141—145.
19. Roffey S. Addressing bully in schools: organisational factors from policy to practice // Educational and Child Psychology.2000.№ 17 (1).P.6—19.
20. Schäfer M. Gruppenzwang als Ursache für Bullying? // Report Psychologie.1998.P.914—927.